

**UDK 808.3**

**Yunusova Gulasal Shuhrat Kizi**

**Master student**

**Tashkent State University of Uzbek Language and Literature**

**named after Alisher Navoi**

**THE PLACE OF USE OF INTERMEDIATE WORDS IN WORD  
GROUPS IN FICTION**

Annotation: This article describes the use of intermediate words in word groups in fiction and their semantic analysis.

Keywords: transposition, literary text, intergroup migration, semantics, migration and emigration.

**YUNUSOVA GULASAL SHUHRAT QIZI**

**Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU II kurs magistranti**

**SO‘Z TURKUMLARIDAGI ORALIQ SO‘ZLARNING BADIY**

**ADABIYOTDA QO‘LLANISH O‘RNI**

Annotatsiya : Ushbu maqolada so‘z turkumlaridagi oraliq so‘zlardan badiiy adabiyotda qo‘llanishi va ularning semantik tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: transpozitsiya, badiiy matn, turkumlararo ko‘chish, semantika, migratsion va emmigratsion ko‘chish.

Hozirgi kunda o‘zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida—davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san’at sohalarida faol qo‘llanilmoqda, xalqaro miqyosda o‘zbek tilining jozibasi yanada oshib, minbarlardan baralla yangramoqda. Bugungi kunda xorijda o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy tilshunoslik sohalaridan semantika tarix va kelajakni bog‘lovchi ko‘prikdir, Semantika diaxron va sinxron tilshunoslik uchun teng darajada ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lgan yo‘nalishlardan biridir. Semantika o‘zbek tilshunosligi tarixida o‘zining keng qamrovliligi, tematik rang-barangligi va yangiligi bilan boshqa til bo‘limlaridan ajralib turadi. Badiiy asar tilini o‘rganish jarayon tilshunoslikda

muhim bo‘lib, yozuvchining so‘z va iboralarni qo‘llash mahoratini hamda uslubini namoyon qiladi.

Kommunikativ jarayonda tilshunoslikda ma’lum bir so‘z turkumidagi birlik boshqa so‘z turkumiga xos grammatik kategoriyalarni qabul qilishi kuzatiladi. J.Eltazarov ta’kidlaganidek, so‘z turkumlararo aloqaning eng yuqori shakli turkumlararo ko‘chish bo‘lib, u tildagi universal qonuniyatlar bilan bog‘liq. Til transformatsiyasi ana shunday qonuniyatlardan biridir. Transpozitsiya she’riyatda ma’lum bir so‘z turkumidagi birlikdan boshqa so‘z turkumiga xos grammatik kategoriyalarni qabul qilishi bilan birgalikda ko‘chim tarkibida, epitet tarkibida kelib she’rning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshiradi. Jumladan, Hamid Olimjon o‘zining poetik asarlarida turli xil badiiy usullardan, til vositalaridan, xususan jonli xalq tili imkoniyatlaridan keng foydalangan.

Hamid Olimjonning «O‘zbekiston» she’rining matnida qo‘llanilgan transpozitiv so‘zlarning turkumlararo ko‘chishi kuzatiladi. So‘z turkumlariaro otga ko‘chishni ya’ni, turli xil so‘z turkumlariga xos birliklarning bitta so‘z turkumiga ko‘chishi ushbu misralarda qo‘llanilgan. Otga emigratsion ko‘chishlar (otlashish):

1. Pazandasi yopadi shirmon, Qarilari kutadi mehmon
2. Hammasining bir istagi bor, Hammasi ham xursand, baxtiyor.
3. Bu o‘lkada har narsa bordir, Ko‘rmaganlar doim xumordir.

O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston, Dostonlarda bitgan guliston. [5.: 211]

Fe’lning vazifaviy shakllaridan sifatdosh va harakat nomi shakli sintaktik vazifasiga ko‘ra ko‘chgan.

Qorli tog‘, qir turar boshida, Gul vodiylar yashnar qoshida.

Otning boshqa so‘z turkumlariga ko‘chishi she’riy matnda qo‘llanilmagan. Sifat turkumidagi ko‘chish hollari. Sifat ba’zi hollarda atributiv vazifada kelgani uchun sifatlashish miqdori chegaralanadi.

Sifatga emigratsion ko‘chishlar (sifatlashish):

- Tog‘lardagi qip-qizil lola, Bo‘lib go‘yo yoqut piyola,
2. Hammasining bir istagi bor, Hammasi ham xursand, baxtiyor.

3. Shunday o'lkada doim bor bo'lsin, Shunday o'lkada elga yor bo'lsin [5].

Boshqa so'z turkumlarining sifatga ko'chishi matnda qayd etilmagan. She'r matnida qo'llanilgan birliklar orasida ko'chuvchanlik yuqori bo'lgan so'z turkumlari ot, sifat va olmosh hisoblanadi.

She'rda qo'llanilgan transpozitiv so'zlar yozuvchining yuqori badiiy mahoratga ega ekanligini, yozuvchi uslubini va individualligini ko'rsatib bergan. Hamid Olimjonning «O'zbekiston» she'ri matni 94 ta jumladan iborat bo'lib, jami she'rda 19 ta o'rinda transpozitsiya kuzatiladi.

“Ko'k” leksemasining semantikasi juda keng qamrovli bo'lib, etimologiya, lingvokulturologiya, etnolingvistika bilan bevosita bog'liqdir. “Ko'k”. Bu rang turklar uchun qay darajada muhimligini ortiqcha tavsiflab o'tirish shart emas. Ko'k - muqaddas rang, muqaddas osmon ramzi, turklarning bayroqlari bo'yalgan ramziy rang. Ko'k rang ko'hna turklarda birinchi navbatda osmon bilan bog'lashgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, “ko'k” so'zi bilan dastlab bugungi moviyga yaqinroq osmon rangi ifodalangan. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida “ko'k” arxaik tilga borib taqaluvchi so'z desak bo'ladi. Uning etimologiyasini topish harakatlari natija bermagani ham bunga qo'shimcha dalil bo'la oladi. Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug'atayn” asarida ham “ko'k” leksemasining bir qancha ma'nolari sanab o'tiladi: “...va ko'k lafzin ham necha ma'ni bila iste'mol qilurlar. Biri ko'k-osmoni derlar. Yana ko'k ohangdur. Yana ko'ktegrada ko'klamdur. Yana ko'k qadog'ni ham derlar. Yana ko'k sabza va o'langni dog'i derlar. Bu nav alfoz hamki uch ma'ni va to'rt ma'ni va ortug'roqqim, iroda qilsa bo'lg'ay, ko'p borki, forsiy alfozda andoq yo'qtur...” Navoiy ko'k so'zining osmon, bahor fasli, maysa kabi bir qancha ma'no semalarini sanab o'tgan. Alisher Navoiy asarlarida ranglardan juda mohirona foydalangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yillar davomida o'zbek tilshunosligida rang bildiruvchi leksemalarning ham grammatik, semantik va ramziy xususiyatlarini tadqiq etish sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan, 1988. 208-b
2. O'zbek tili grammatikasi, Morfologiya. - Toshkent: Fan, 1975. - 610 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildli. Ikkinchi jild - Toshkent, 2006. - 462
4. 4. Eltazarov J. So'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa hamda ko'chish hollari. - Toshkent. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2006. - 170 b.
5. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar. - Toshkent, 1951. - 528 b.
6. O'tanova S. Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasi: Filol. nom...diss. - T., 2017. - 32 b.